



O'ZKIMYOSANOAT
AKSIYADORLIK JAMIYATI


2025-yil 15-dekabr

“O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari “Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi” da faol ishtirok etmoqda



Poytaxtimizdagi «O‘zekspomarkaz» milliy ko‘rgazmalar zalida Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi o‘z ishini boshladi.

Sanoat sohasini rivojlantirish, mamlakatimizning yirik sanoat tashkilotlari o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan ko‘rgazmada “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalari tomonidan 200 ga yaqin import qilinayotgan va tarmoq korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan kimyoviy mahsulotlar namoyish etilmoqda.




Yarmarka respublikaning yirik sanoat tashkilotlari o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish bilan bir qatorda ishtirokchilarga mahsulotlar haqida ma'lumot taqdim etish va istiqbolli qo'shma loyihalarni rejalashtirish uchun o'ziga xos maydon hisoblanadi.



Tadbir davomida B2B va B2G formatida muzokaralar o'tkazish hamda o'zaro manfaatli shartnomalar tuzish rejalashtirilgan.









Sanoat yarmarkasi 19-dekabrga qadar davom etadi.

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-tarmoq-korxonalari-respublika-tarmoqlararo>